



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASINING  
BUYRUG'I**

2022-yil “16”-may.

№ 168

Toshkent sh.

**To'lov-kontrakt mablag'larini hamda talabalar turar joyidan foydalanganlik uchun  
to'lov qiymatini to'lash muddatini uzaytirish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi “Ta'lif to'g'risida”gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagagi “Oliy va o'rta maxsus ta'lif tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4391-sonli va 2021-yil 24-dekabrdagi “Davlat oliy ta'lif muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-61-sonli qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 18-dekabrdagi 319-son qarori bilan tasdiqlangan “Klinik ordinatura to'g'risida”gi Nizom, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-iyundagi 393-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta'lif muassasalari talblari o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risida”gi Nizom hamda Adliya vazirligi tomonidan 2013-yil 26- fevralda 2431-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan, Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirining 2012-yil 28-dekabrdagi 508-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan “Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shakli va undan tushgan mablag'larni taqsimlash tartibi to'g'risida”gi Nizomga asosan Toshkent tibbiyot akademiyasida (keyingi o'rinnlarda – Akademiya) to'lov-kontrakt asosida o'qiyotgan talabalar va klinik ordinatorlarga bilim olish uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida

**BUYURAMAN:**

1. Akademiyada o'qiyotgan talabalari, shuningdek, klinik ordinatorlar hamda ularning ota-onalarining to'lov-kontrakt bo'yicha o'qish hamda talabalar turar joyidan foydalanganlik uchun belgilangan miqdordagi to'lovni va amalga oshirish muddatini o'zaytirish to'g'risidagi murojaatlarini inobatga olib, jumladan, koronavirus pandemiyasi tugamaganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagagi PQ-4391-sonli “Oliy va o'rta maxsus ta'lif tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorining 11-bandи va 2021-yil 24-dekabrdagi “Davlat oliy ta'lif muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-61-sonli qarorining 4-bandiga asosan:

- bitiruvchi kurs bo'lgan talabalarning 2021/2022-o'quv yili uchun to'lov-kontrakt miqdorini 75 foizini to'lashning oxirgi muddati 2022-yil 20-mayga qadar uzaytirilsin;
- bitiruvchi kurs bo'lмаган talabalarning 2021/2022-o'quv yili uchun to'lov-kontrakt miqdorini 75 foizini to'lashning oxirgi muddati 2022-yil 25-mayga qadar uzaytirilsin;

- klinik ordinatorlarning 2021/2022-o'quv yili uchun to'lov-kontrakt miqdorini 75 foizini to'lashining oxirgi muddati 2022-yil 25-mayga qadar uzaytirilsin;
- talabalar va klinik ordinatorlarning 2021/2022-o'quv yili uchun to'lov-kontrakt miqdorini 100 foizini to'lashining oxirgi muddati 2022-yil 30-iyun etib kat'iy belgilansin;
- Akademianing talabalar turar joyida vaqtinchalik yashab kelayotgan talabalar turar joyidan foydalanganlik uchun to'lov to'lashni oxirgi muddati 2022-yil 25-mayga qadar uzaytirilsin.

**2. Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor J.K.Xakberdiyevga:**

- o'qish uchun hamda talabalar turar joyidan foydalanganlik uchun belgilangan miqdordagi to'lovnini amalga oshirmagan talabalar va klinik ordinatorlar to'g'risidagi kunlik ma'lumot fakultetlar, magistratura bo'limi va klinik ordinatorlar kesimida shakllantirilib borilsin hamda har ish kuni soat 10:00ga qadar Akademiya rektoriga taqdim etilishi ta'minlansin.

**3. O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, barcha fakultet dekanlari, magistratura bo'limi boshlig'i A.A.Imamovlarga:**

- o'qish uchun hamda talabalar turar joyidan foydalanganlik uchun mazkur buyruq bilan belgilangan muddatlarda to'lovnini amalga oshirmagan hamda bir semestr davomida darslarni uzrli sabablarsiz 74 soatdan ortiq qoldirgan talabalar Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-iyundagi 393-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarini talablari o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 36-bandiga asosan Adliya vazirligi tomonidan 2013-yil 26-fevralda 2431-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2012-yil 28-dekabrdagi 508-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shakli va undan tushgan mablag'larni taqsimlash tartibi to'g'risida"gi Nizomning 27-bandiga muvofiq talabalar safidan chetlashtirilsin.

**4. O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov va Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektorlari F.L.Azizovaga:**

- o'qish uchun belgilangan miqdordagi to'loving 75 foizini 2022-yil 25-maygacha to'lamagan klinik ordinatorlar Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 18-dekabrdagi 319-son qarori bilan tasdiqlangan "Klinik ordinatura to'g'risida"gi Nizomning 26- va 27-bandlariga muvofiq o'qishdan chetlatilsin.

**5. Barcha fakultet dekanlari, Magistratura bo'limi boshlig'i A.A.Imamov, Ilmiy-tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Z.A.Muminova, Talabalar turar joylari direktsiyasi direktori I.M.Allanazarov va Matbuot kotibi G.T.Mirzayevalarga:**

- ushbu buyruq Akademianing rasmiy veb-saytida e'lon qilinsin hamda to'lov-kontrakt asosida tahsil olayotgan mablag'larini to'lamagan barcha talabalar va klinik ordinatorlarga hamda talablar turar joyida yashab kelayotgan talabalarga etkazilsin.

**6. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.**

**Rektor**



**A.K.Shadmanov**